

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



**“TILLAR TIPOLOGIYASI”**

**FANI BO‘YICHA**

**SILLABUS**

**Bilim sohasi:** 200 000 – San‘at va gumanitar fanlar  
**Ta‘lim sohasi:** 230 000 – Tillar  
**Ta‘lim yo‘nalishi:** 60230800 – Kompyuter lingvistikasi

**Toshkent-2023**

Fan/modul kodi	Fan/modul turi	Ta'lim tili	Ishlab chiqilgan o'quv yili						
			2023/2024						
TT1105	ma'juriy	o'zbek							
Semestr	Har bir semestrdaqi modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari			Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)		
			Jami:	ma'ruza	seminar			amaliy laboratoriya	
1	Tillar tipologiyasi	5	4	60	20	40	0	90	150
	Jami:	5	4	60	20	40	0	90	150

#### Fan maqsadi (FM)

“Tillar tipologiyasi” fani talabalariga lingvistik tipologiyaning obyekti va empirik bazasi, tipologik tadqiqotlar mavzusi va obyekti, lingvistik universallarni aniqlash, til darajalari tipologiyasi, areal lingvistika, shuningdek, tadqiqot vazifalari va usullari to'g'risida bilim berish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tishunoslik bilimlarining kompyuter lingvistikasi sohasidagi o'rinni ayon etish, tiling g'oyalari va tuzilishini shakllantirish, asosan, o'zbek, turk, ingliz va rus tillarining tipologik xususiyatlarini o'rgatishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosaga chiqarishga, lingvistikaning amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur fan tishunoslik ilmidagi tillarning kelib chiqishi, til oilalari bilan bog'liq masalalar haqida ma'lumot beradi.

Fanni o'qitishdan maqsad tishunoslik fani, uning bo'limlari, o'rganish obyekti, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma'lumot berish, talabalarni tishunoslik fanining asosiy tushunchalari, kategoriyalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, talabalar olingan bilimlarni amalda qo'llay olish malakasini shakllantirish kabi vazifalarni hal qilishni taqozo qiladi.

#### Ta'lim natijalari (TN)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- taqoslanadigan tillarning fonetika, morfologiya, lug'at va sintaksis sohasidagi asosiy xususiyatlarini anglashi;
- fonologik, morfologik, leksik va sintaktik darajadagi interferensiyasi sabablarini aniqlashi;
- o'rganilayotgan har bir tilning tipologik xususiyatlarini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalana olishi;
- leksikologiya, fonetika, grammatika va sintaksis sohasidagi tillarning o'ziga xos tipologik xususiyatlarini bilishi kerak;

– german (ingliz, nemis) va german bo'lmagan (o'zbek, rus, tatar) tillari hodisalarida o'xshash hamda o'ziga xos xususiyatlarini topish, zamonaviy ingliz tili hodisalarini ona tili nuqtayi nazaridan tushuntirish, o'z ilmiy tadqiqotlarida qiyosiy va kontrastli usullarni qo'llay olish, lingvistik faktlarni kontrast-qiyosiy yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilish, muayyan nazariy masalalarga doir fikrlarni bayon etish, ayni fikrlarga qiyosiy tishunoslik bo'yicha ilmiy adabiyotlardan tanqidiy foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

– tillarning tasnif bilan tanish bo'lishi, o'rganilayotgan tillarning tipologik xususiyatlarini o'zlashtirishda til hodisalarini til sahhari bo'yicha qiyoslash, o'z nuqtayi nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana olish malakasiga ega bo'lishi zarur.

#### Talabalarining kreditlarini olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdaqi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom” Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan Tillar tipologiyasi fanidan 150 soat (1-semestrda 150) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 5 (1-semestrda 5) kredit beriladi.

Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.

Talabalarining bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustidagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan

“Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

#### Talabalarining bilimni baholash mezonlari:

**5 bahò.** Talaba amaliy topshiring'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.

**4 bahò.** Talaba amaliy topshiring'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muayyan nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

3 baho. Talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talabada fikrni izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.

2 baho. Talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

Nazoratlarini amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: 2 ta.

1-oraliq nazorat og'zaki shaklda o'tkaziladi. Tillar tipologiyasi fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga yozma javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savolnoma savollari Sintaksis fani mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 20 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Yozma ishini baholash mezonlari: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kamini (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

2-oraliq nazorat test shaklida o'tkaziladi. Tillar tipologiyasi fani uchun har bir talaba 30 ta savoldan iborat test topshiradi. Test kompyuterda test.navoiy-uni.uz platformasida tashkil etiladi. Test topshiriqlari savollari fan mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 2 daqiqa, jami 30 ta savol uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshirish jarayonida test bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Test natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Testni baholash mezonlari Talaba jami savollardan 27-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 23-26 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-22 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kamini (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat: Tillar tipologiyasi fani bo'yicha har bir talaba 30 ta savoldan iborat test topshiradi. Test kompyuterda test.navoiy-uni.uz platformasida tashkil etiladi. Talabaga login va parol orqali tizimga kirish imkoniyati yaratiladi. Test topshiriqlari savollari mazkur fan mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 2 daqiqa, jami 30 ta savol uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshirish jarayonida test bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Test natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Testni baholash mezonlari Talaba jami savollardan 27-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 23-26 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-22 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kamini (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va YNni topshira olmagan hisoblanadi.

Izoh: Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'qur mashg'ulotlari davomida olgan baholalari inobatga olinadi. Nazoratlarining o'tkazilishi muddalari muayyan o'qur yilida tasdiqlangan o'qur jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

	Fan mazmuni	Soat
	<b>Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (1-semestr)</b>	<b>20</b>
M1	Kirish. "Tillar tipologiyasi" fanining maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti.	2
M2	Tipologik tadqiqotlar tarixi. Dunyo tillari tasnifning nazariy asoslari Dunyo tillari tasnifi	2
M3	Tipologik tahlil usullari	2
M4	Lingvistik universalisiya. Ectolon tili	2
M5	Tillarining rivojlanishi va variantlashuvi	2
M6	Fonetik-fonologik tipologiya	2
M7	Tillarining morfologik klassifikatsiyasi (analitiklik, sintetiklik va polisintetiklik)	2
M8	Simaktik tipologiya. Tillar tabiati: agglutinatsiya va fleksiya	2
M9	Leksik tipologiya. Tillarining funksional tipologiyasi	2
M10	Areal lingvistika	2
	<b>Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A) (7-semestr)</b>	<b>40</b>
A1	Lingvistik tipologiya tishunoslik yo'natishi sifatida	2
A2	Tipologiya nuqtai nazaridan tili va tili tizimi	2

A3	Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi	2
A4	Tipologik tadqiqotlar tarixi	2
A5	Tipologik tahlil darajalari	2
A6	Dunyo tillari tasnifi muammosi	2
A7	Til universalini aniqlash va ularni o'rganish tarixi	2
A8	Ekalon til va uning turlari	2
A9	Dunyo tillari va xalqaro tillar.	2
A10	Trink va o'rik tillar.	2
A11	Sun'y tillar	2
A12	Tipologik belgilar. Taqqoslanadigan tillarning fonologik tizimlari	2
A13	Super segment birliklarining tipologik xususiyatlari	2
A14	Morfologik tipologiya. Morfologik belgi tushunchasi	2
A15	O'zbek tili va taqqoslanayotgan tillarning morfologik tuzilishidagi asosiy tipologik farqlar	2
A16	Sintaktik tizimlar tipologiyasi. So'z birligmasi.	2
A17	Turlilarda gap qurilishining o'ziga xosliklari	2
A18	Derevatsion tipologiya. Y asama so'zlarning xususiyatlari	2
A19	Sodda va qo'shma so'zlar	2
A20	O'zbek tili va qiyoslanayotgan tillarning tipologik pasporti	2

### 3. Mustaqil ta'lim ishlari

"Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar"ning asosiy maqsadi — o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan tadqiqot ishlari mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'yimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlari bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'yimlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- o'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalar tayyorlash;
- badiiy asarlarni o'qish va mulohaza qilish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalanadigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distanston) ta'lim.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Qaysi o'quv mashg'ulot turiga mos kelishi	Qisqacha tavsifi (kaht so'zlar)	Soatlar hajmi
---	---------------------------	---	---------------------------------	---------------

1	Fonologik tipologiya	Amaliy	Fonologiya, fonema, fonologik tipologiya	4
2	Morfologik tipologiya	Amaliy	So'zshakl, so'z tarkibi, tillar tasnifi	4
3	Sintaktik tipologiya	Amaliy	Sintaktik birliklar, gapning qurilish konstruktori, sintaktik tipologiya	4
4	Semantik tipologiya	Amaliy	Semantika, qoyosiy semantika, qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar tipologiyasi	4
5	O'zbek va rus tillarida morfologik tipologiya	Amaliy	So'zshakl, so'z tarkibi, tillar tasnifi, morfologik tipologiya	4
6	O'zbek va ingliz tillarida morfologik tipologiya	Amaliy	agelyutinativ tillar, flektiv tillar, polisintetik tillar, morfologik tipologiya	4
7	O'zbek va rus tillarida sintaktik tipologiya	Amaliy	Sintaktik birliklar, gapning qurilish konstruktori, sintaktik tipologiya	4
8	O'zbek va ingliz tillarida sintaktik tipologiya	Amaliy	Sintaktik birliklar, gapning qurilish konstruktori, sintaktik tipologiya	4
9	O'zbek va ingliz tillarida sintaktik transformatsiya	Amaliy	agelyutinativ tillar, flektiv tillar, polisintetik tillar, qarindosh bo'lmagan tillar	4
10	O'zbek va rus tillarida semantik tipologiya	Amaliy	Semantika, qoyosiy semantika, o'zbek va rus tillarining tipologiyasi	4
11	O'zbek va ingliz tillarida semantik tipologiya	Amaliy	Semantika, qarindosh bo'lmagan tillar tipologiyasi	4
12	Ingliz tilining geografik tarmoqlanishi	Amaliy	Areol lingvistiqa, ingliz tili areali	4

13	Geografiya bo'yicha tillar guruhlari	Amaliy	Areal tilshunoslik, dunyo tillari	4
14	G'arbiy Yevropaning lingvistik areali	Amaliy	Lingvistik areal, G'arbiy Yevropa tillari	4
15	Sharqiy Yevropaning lingvistik areali	Amaliy	Lingvistik areal, Sharqiy Yevropa tillari	4
16	Lingvistik universalarni aniqlash va ularning tadqiqot tarixi	Amaliy	Universal, tarixiy-qiyyosiy metod, dunyo tillari	4
17	O'zbek areal tilshunosligi tarixi va istiqbollari	Amaliy	areal tilshunoslik, dialekt, lahja, koynе	4
18	Struktur tipologiya	Amaliy	Tilshunoslik maktablari, tipologiya	4
19	Areal tipologiya	Amaliy	Lingvistik tahlil metodlari, tipologiya	4
20	Turkiy tillardagi musharak va farqli jihatlilar	Amaliy	Turkiy tillar, tipologiyasi, lingvistik geografiya	4
21	Turkiy tillarda singarmonizm hodisasi	Amaliy	Turkiy tillar, fonetik hodisalar, singarmonizm	4
22	Vostitachi tillar: lingva-franka, kreol, pijin va koynе	Amaliy	kreol, pijin va koynе	4
23	Genetik tipologiya	Seminar	Tarixiy-qiyyosiy metod, qatindosh tillar, til oilalari	2
			Jami:	90 s.

## 6. O'QUV ADAVIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

### Asosiy adabiyotlar:

1. Ibragimov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 1992.
2. Xolmatova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.
3. Nurmatov A. Tanlangan asarlar. 3 jild. 1-jild. – T.: Akadempasir, 2012.
4. Шарафутдинова Н. С. Лингвистическая типология и языковые ареалы: учебное пособие / Н. С. Шарафутдинова. – 2-е изд., перераб. и доп. – Ульяновск: УлГТУ, 2011. – 159 с.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харажатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (“Халқ сўзи”, 2017 йил, 8 февраль).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (“Халқ сўзи” 2017 йил, 21 апрель)
3. О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nuфуzi va mavqеini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5850-son Fatmoni (<https://lex.uz/docs/4561730>)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Yamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6084-son Fatmoni (<https://lex.uz/docs/5058351>)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “O'zbek tili bayrami kuni belgilash to'g'risida”gi O'RO-615-son Qonuni (<https://lex.uz/docs/4784608>)
6. Nurmatov A. va b. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2001.
7. Сова Л. З. Аналитическая лингвистика и типология // Отв. редактор В. А. Дившиц. СПб.: Издательство Политехнического университета, 2007. 378 с.

### Internet saytlari

1. <https://drrtm.ru/uz/kontinpa-da-karta-mifa-yazykovu-e-semi-i-grupru-yazykovu-e-semi-i/>
2. <https://dvaq.ru/uz/yazykovu-e-semi-i-yazykovu-e-grupru-yazykov-desyaal-samyh-nasprostoyamnyh-yazykov-na-planete-rodnoi-yazyk/>
3. <https://actionvideo.ru/uz/ozhegova/yazykovu-e-semi-i-narody-mifa-yazykovu-e-semi-ih-obrazovanie-i.html>

<https://ief-usfeu.ru/uz/osnovnye-yazykovu-e-grupru-yazykovaya-semya/>

### Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

<b>Muallif:</b>	Elova Dilrabo, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
<b>E-mail:</b>	<a href="mailto:dilraboelova@gmail.com">dilraboelova@gmail.com</a> <a href="mailto:elova@navoiy-uni.uz">elova@navoiy-uni.uz</a>
<b>Tashkilot:</b>	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, “ ” kafedrasi
<b>Taqrizchilar:</b>	